# Davlat soliq qoʻmitasi raisi oʻrinbosari J.Abdiyevning faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishini baholashning
# ASOSIY MEZONLARI

*(Soliq toʻlovchilarga xizmat koʻrsatish, Soliq solish metodologiyasi masalalari)*

*01.05.2022 yil holatiga*

**Soliq qonunchiligi normalarini bir xilda qoʻllanilishini taʼminlash boʻyicha tushuntirish ishlarini olib borish**

Oʻzbekiston Respublikasining “Soliq maʼmuriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan oʻzbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-758-sonli qonuni bilan soliq qonunchiligiga kiritilgan oʻzgartirishlar toʻgʻrisida ommaviy axborot vositalarida yoritildi.

Jumladan, ushbu Qaror bilan soliq qonunchiligiga kiritilgan oʻzgartirishlar boʻyicha Qoʻmita tomonidan “Oʻzbekiston - 24” telekanalida va “Oʻzbekiston” radiosida chiqishlar qilindi.

Shuningdek, qarorlar ijrosi yuzasidan Qoʻmitaning ijtimoiy tarmoqlardagi (telegram, facebook, instagram, tviter) sahifalariga maʼlumotlar joylashtirildi.

Mazkur Qonunning mazmun va mohiyatini hamda unda belgilangan mahalliy davlat organlarining vakolatlari va majburiyatlarini fuqarolarga, tadbirkorlik subʼektlari vakillari, korxona va tashkilotlar rahbarlari hamda buxgalterlariga yetkazish boʻyicha Andijon hamda Fargʻona viloyatlarida seminarlar tashkil etildi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoʻllangan 178 ta savollarga tezkor javoblar tayyorlab, mualliflarga yetkazildi. Bundan tashqari, Qoʻmitaga kelib tushgan 255 ta soliq toʻlovchilarning murojaatlari.

**Oʻzini oʻzi band qilgan xodimlarni soliq organlarida hisobga olish**

Aholini tadbirkorlikka yanada keng jalb qilish orqali oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarni soliq organlarida hisobga olinishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida oʻtgan 2022-yil davomida **342,3 ming nafar** fuqarolar oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida soliq organlarida hisobga olinishi taʼminlandi.

Jumladan, Ijtimoiy yoʻnalishlar boʻyicha xizmatlar *(Uyda repetitorlik qilish, bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish, uy xoʻjaligini yuritish, xonalarni tozalash, xalq tabobati, hamshiralik ishi)* **40,8 ming nafar**, Sanoat yoʻnalishi boʻyicha xizmatlar *(Yogʻoch meʼmorchiligi, santexnika xizmati, elektr montaj ishlari, makulatura, plastik idish, temir tersak toʻplash va qoʻshimcha xomashyo toʻplash)* **54,8 ming nafar**, Qishloq xoʻjaligi yoʻnalishi boʻyicha xizmatlar *(Chorva mollarini oʻtlatish, ularni parvarish qilish, qishloq xoʻjalik oʻsimliklarini ekish va parvarish qilishda tomorqa egalariga yordam berish)* **160,8 ming nafar**, Axborot komunikatsiya yoʻnalishi boʻyicha xizmatlar *(Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, dasturiy taʼminot, mobil ilovalar va veb saytlarnii ishlab chiqish,*

*matnni yaratish va ishlov berish)* **5,6 ming nafar**, Maishiy xizmatlar *(Sartaroshlik, manikyur, kosmetolog, pedikyur, uyda kir yuvish va dazmollash, kalitlar tayyorlash, poyabzal tikish, ta'mirlash va bo'yash xizmatlari)* **62,8 ming nafar**, Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish *(Non, uyda pop-korn, muzqaymoq, salatlar, salqin ichimliklar, ayron, go'ja hamda dehqon bozorlarisha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish)* **17,5 ming nafar** aholi bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, 2022 yilning 1-aprel holatiga **108 ming nafar** aholi tomonidan **27 926,4 mln.so'm** ijtimoiy soliq summasi to'lab berilgan.

**Soliq majburiyatiga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan soliq hisobotlarini topshirilishini monitoring qilib borish**

2022 yil mart oyi uchun hisobot topshirish majburiyatiga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz, foyda, aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlarini taqdim qilinishi tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi.

**Aylanmadan olinadigan soliq** hisobotini respublika bo'yicha **286,4 mingta** korxonaning **770 mingta**si *(0,3%)* taqdim qilmagan.

2022 yil mart oyi uchun **QQS bo'yicha** hisobot taqdim etilishi lozim bo'lgan **148,5 mingta** korxonadan **1,3 ta**si *(0,9%)* hisobot taqdim qilmagan.

**Foyda solig'i bo'yicha** hisobot taqdim etilishi lozim bo'lgan **148,5 mingta** korxonadan **6,7 mingta**si *(2,3 %)* hisobot taqdim qilmagan.

2022 yil **mart oyi** uchun **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i** hisobotini topshirish majburiyatiga ega bo'lgan **465,6 mingta** yuridik shaxslardan **1,5 mingta**si *(2,5 %)* hisobot taqdim qilmagan.

Shuningdek, **Respublika bo'yicha 202 ta tuman va shaharlarda hisobot topshirmagan korxonalar 50 foizdan ko'pni tashkil qiladi**.

Jumladan, Toshkent viloyatida 22 ta, Farg'onada 19 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 17 ta, Andijonda 16 ta, Samarqandda 16 ta, Surxondaryoda 15 ta, Qashqadaryoda 15 ta, Buxoroda 12 ta, Namangan va Xorazm viloyatlarida 12 tadan, Jizzax va Navoiy viloyatlarda 11 tadan, Toshkent shahrida 12 ta tuman va shaharlardan **hisobot topshirmagan korxonalar soni 50 foizdan ko'p.**

2022 yil yanvar oyi uchun **aksiz solig'i** bo'yicha hisobot taqdim etishi lozim bo'lgan **4,4 mingta** korxonadan **8 ta**si *(0,02%)* hisobotni taqdim qilmagan.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisobot taqdim etilishi lozim bo'lgan **2 093 ta** korxonadan **172 ta**si *(8 %)* hisobot taqdim qilmagan.

**«Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosining ta'minlanishi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 16 mart kuni Davlat soliq qo‘mitasiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha 21-son bayoni 4-bandining ijrosi yuzasidan jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida olib borilayotgan nazorat tadbirlari samaradorligini oshirish, soliqqa oid huquqbuzarliklar holatlari haqida soliq organlarini xabardor qilish va ularni mukofot to‘lash yo‘li bilan rag‘batlantirish tartibini belgilash, shuningdek, yashirin iqtisodiyotga qarshi samarali kurashish va nazorat tadbirlarida korrupsiyaga moyillikni oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori loyihasi (*ID-55581*) ishlab chiqildi.

Xususan, ushbu loyiha Moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi tomonidan ma’qullanib, jamoatchilik muhokamasidan so‘ng loyiha Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan. Huquqiy ekspertiza natijalariga ko‘ra, loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi (*19.02.2022 yil 18/1-16736-son xati*).

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022 yil 4 mart kuni “Oliy ta’lim muassasalari talabalari bandligini ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilash to‘g‘risida” o‘tkazilgan yig‘ilishining 19-son bayoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 10 martdagi “Talabalar ijtimoiy sharoitini yaxshilash va bandligini ta’minlash bo‘yicha Respublika komissiyasi majlisi”ning 1-son bayonining 3-ilova 12-bandi ijrosi yuzasidan, oliy ta’lim muassasalari hududida tashkil etilgan pullik o‘quv kurslari, sport to‘garaklari va boshqa xizmatlarni tashkil etgan talabalarni daromad solig‘idan ozod qilish yuzasidan tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha Moliya vazirligiga 2022 yil 15 aprelda takliflar kiritildi